



2023-yil. 5-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI
Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584

Shaxribon Musurmankulova. "Uzturkfraz" parallel korpusi ma'lumotlar bazasini shakllantirish texnologiyasi	84
Zarina Ro'zimurodova. "Londonjon" haqida nimalarni bilasiz?	86
Dilfuza Shadiyeva. Zamonaviy o'zbek she'riyatida qo'llangan tajnis san'atining lisoniy xususiyatlari	87
Akmal Tursunov. Yasama so'zni o'rganishning morfologik bosqichilari	89
Назира Ахмедова. Художественная культура, как фактор развития индивидуальности и воспитания личности студентов технических высших учебных заведений	90
Исҳаққон Исмаилов. Тарихнависликка эътиборнинг асар бадииятида туттган ўрни	92
Муҳаббат Юсупова. Сценарий (скрипт) как динамическая когнитивная единица	94
Dilnavoz Yusupova. Alisher Navoiy ijodida shayxlar zikri va ma'rifatulloh talqini	97
Фотима Яркулова. Развитие речи на занятиях по русскому языку как иностранному на этапе предвузовской подготовки	100
Nafisa Sattorova. Shortened words and their types in English and Uzbek	103
Шахзода Эгамбердиева, Фарида Эгамбердиева. Соотношение концепций «коммуникативная стратегия» и «манипулирование» в рекламном дискурсе	105
Sharofiddin Jalilov. Otanazar Muso Mutavalli Kamoliv va uning devonini o'rganilishi	108
Dilfuza Shakirova. O'zbekiston ta'lim bozorida milliy brendning rivojlanishi tahlili	109
Gulshan Ishankulova. Yurtimzdagi ko'plab geografik joy nomlarining lingvistik tahlili	111
Dilbar Nigmatova. Ixtisoslashgan nashrlarda til va uslub jihatdan tahlil masalalari	113
Gavxar Axmedova, Maxbuba Ummatova. Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda masalaviy yondashuvning ahamiyati	114
Mukhayyo Atadjanova. Different approaches to the definition of the concept of "discourse"	116
Vohida Yuldasheva. Evfemizmlar madaniyatlararo muloqotning obyekti sifatida	118
Pardatursun Qurbanov. Fanlararo integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning kasb-hunar tanlash kompetentsiyalarini rivojlantirishning asoslari	121
Ulug'bek Rahmonov. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxsiy va professional sifatlarini takomillashtirishda ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	122
Malika Suyunova. Xalq badiiy tilining Hamza she'riyatida tutgan o'rni	125
Oydin Shuxratova. Bolalar folklorining o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidagi o'rni	127
Nilufar Sultanova. O'zbek romanlarida postmodernistik syujet tamoyillari	129
Hulkar Isroilova. Abdulla Qahhor asarlarida erkak va ayol nutqidagi gender tafovutlar, disfemizm va evfemizmnning qo'llanilishi	131
Ra'no Madjidova, Eldor Khusanov. Ingliz va o'zbek tillarida sheva va dialekt tushunchalarining qo'llanilish usullari	133
Moxiraxon Usmonxonodjayeva. Chet til darslarida o'quvchilarini madaniyatlararo muloqot qilish ruhida tarbiyalash	135
Ra'no Kasimova, Gulruh Olimova. Hojiakbar Shayxovning "Ikki jahon ovorasi" asarida qahramonlar ruhiyati	137
Maftuna Rahimova. Ikki tovushli so'zlarda ifodalovchi strukturası	139
Fariza Ruzimurodova. The impact of deconstruction on the quality of literary translation	141

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

S.Abdullayeva. Chet tilini o'qitishda loyihalash modeli	143
Ziyoda Bazarova. Neyrodidaktika yordamida o'quvchilarning lisoniy kompetentligini shakllantirish muammolari	145
Adiba Davlatova. Abdulla Oripov poetik tafakkurining adabiy-estetik ildizlari	147

TAHLIL

Zuhra Qarshiboyeva. Sohaga oid terminlarning imlosi masalalari	150
To'ra Toshmuhammad Zarif. Hofiz Xorazmiy hayoti va adabiy muhit	151
Muhabbat Ruzmetova. Biznes ingliz tilini o'qitishning lingvovidaktik aspekti	153

KICHIK TADQIQOT

Nodira Baxramova. Gorizontal harakat fe'llarining ma'no tuzilishi	155
Dildora Yorbulova. "Qurban" hikoyasining gap strukturasidagi tahlili	156
Gavxar Qurbonova. Olamning milliy lisoniy manzarasida astronimlar	158
Shohista Mahmudova. Muallif va badiiy asar munosabati	160
Qobil Egammazarov. Yadro predikativ 1 (np1) o'rnda kelgan noaniq olmoshlar ifodalangan sintaksemalar	162
Shamsiddin Primov. Kichik hajvij publisistik janrlar kommunikativlik xususiyatlari	163
Mirshod Eshonkulov. Xushboq Rahim lirikasida poetik nutqning yetakchi xususiyatlari	165
Shahribonu Hamrayeva. Alisher Navoiy obrazining o'zbek adabiyotida Ifodalanishi	167
Muxayyo Rayxonova. Muallif tahririda takomillik	168
Aziza Amonova. PIRLS ta'lim sifatini rivojlantiruvchi va baholovchi xalqaro dastur	170
Aktam Gaffarov. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli va ularning o'ziga xos xususiyatlari	171
Bobur Sharipov. Retsiproklik tuzilishi va uning grammatic xususiyatlari to'g'risida ayrim mulohazalar	173
Nigina Akhmedova. The role of activities in improving speaking skill	174
Nafosatxon Hojiyeva. Ajratilgan bo'laklar gaplarni murakkablashtiruvchi vosita sifatida	175
Gulrukha Doniyorova. The significance of microbiological terms related to coronavirus vocabulary	177
Orzigul Ablakulova, Sohila Aminova. Video lessons and teacher's role in this type of lessons	178
Dilorom Yuldasheva. Subyektning mavhumlik darajasi va kontekstlarda namoyon bo'lishi	180
Umida Azimova. Oliy ta'lim muassasalarida Muqimiy asarlarining o'qitilishi	182
Muxlisa Muhiddinova. Muqimiy asarlarida iqtisodiy terminlarning qo'llanilishi	184
Dilafruz Nazarova. Huvaydo ijodida an'anaviy obrazlar talqini	186
Feruza Ermatova. Nazar Eshonqul asarlarida ma'nodosh so'zlar	188
Bahoroy Eshmanova. O'zbek xalq maqollarida nutq madaniyatining milliy madaniy xususiyatlari	192
Nigora Erkinova. She'riyatda xalqona motiv va an'analar ifodasi	194
Dilshodjon Tirkashev. Somerset Moyemning "The moon and sixpence" ("Oy va olti penni") romanida badiiy obrazlar yaratishda stilistik vositalardan foydalananish	196
Malika Rajapova. Allegorik vositalarning lingvokognitiv va lingvopragmatik xususiyatlari	197
Mazmuna Otoboyeva. O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarlarning o'xshash va farqli jihatlari	198
Nodirakhon Khatamova. Advantages and challenges of integrating social media into foreign language learning	199

Moxiraxon USMONXODJAYEVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
universiteti o'qituvchisi

CHET TIL DARSALARIDA O'QUVCHILARNI MADANIYATLARARO MULOQOT QILISH RUHIDA TARBIYALASH

Annotatsiya. Maqlada o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Chet tilni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar taqdim etiladi. O'quvchilarni o'z ona tilini o'rganish bilan birgalikda o'zgalar tili va madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalash ko'nikmalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy ko'nikma, yozma nutq, matn, og'zaki nutq, til materiali, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация. В статье анализируются особенности развития навыков говорения учащихся. Представлены современные подходы к обучению иностранного языка. Речь идет о навыках воспитания учащихся в духе уважения языка и культуры других людей, наряду с изучением родного языка.

Ключевые слова: речевая компетенция, письменная речь, текст, устная речь, языковой материал, межкультурная коммуникация.

Annotation. The article analyzes the features of the development of students' speaking skills and presents modern approaches to teaching a foreign language, as well as talks about the skills of educating students in the spirit of respect for the language and culture of other people along with the study of their native language.

Keywords: speech competence, written speech, text, oral speech, language material, intercultural communication.

Bugungi kunda bilimga asoslangan jamiyatda axborotni izlash, saralash va qabul qilish, tushunish va uni tahlil qilish, tavsiflash, tuzish va qayta ishslash muhim aqliy ko'nikmalarni egallashga alohida e'tibor qaratilmoga. O'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila oladigan, mustaqil shaxsiy fikrga ega, dunyoqarashi keng o'quvchini tarbiyalash ona tili ta'liming asosiy maqsadini belgilaydi. Shu bilan bir qatorda, o'quvching ona tilini chet til bilan birga o'rganishi, til materiali va vositalarini nutqda qo'llay bilishi uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirishi, muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olishi, badiiy, ilmiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri ifoda etishi ko'zda tutiladi. Bu borada o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, chet til ta'limida kommunikativ yondashuvni qo'llash bugungi dolzarb mavzulardan biridir.

Bugungi kun o'qituvchisidan yangi original o'qitish uslublarini joriy qilish, o'quvchilarga grammatik, imlo, talaffuz qoidalarni puxta singdirish, ijodiy ishlarni, yozma nutqni mazmundor, qolaversa, fikrni asosli va izchil bera olish, ijodiy, yozma ishlarni (matn tuzish) yoza olishda ko'nikma hamda malakalarni singdirish talab qilinadi. Chet til mashg'ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o'quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o'z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. Yozma nutqning murakkab jarayon ekani, u ko'p vaqt va murakkab mehnat talab etishi, bunday nutq davomida o'quvchining o'z-o'zini kuzatib borishi chet til o'qituvchilariga juda yaxshi ma'lum. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy o'rinnutadi. Bundan tashqari, so'z ma'nolari ustidagi ish

murakkabdir. Har doim matn ustida ishlaganda yangi so'zlarga va so'zlarning yangi ma'nolarda qo'llangani ga e'tiborni tortish o'quvchilarning bu sohadagi ko'nikma va malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi [1].

An'anaviy chet til darslarida o'quvchilarning grammatikaga oid bilimlarini mustahkamlash uchun berib boriladigan qoidalarni yod oldirish va ularni mashqlar va topshiriqlar asosida mustahkamlash hozirgi zamon ta'limida o'zini biroz oqlamadi. Uning o'rniga o'quvchilarning erkin fikrlashiga undovchi mashg'ulotlarni tashkil etish samara bermoqda.

Tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko'ra, grammatic topshiriqlar bajarishga yo'naltirilgan o'quvchilar fanni hayot bilan integratsiya qila olmayapti. Ularning og'zaki va yozma nutqida birmuncha g'alizliklar, tushunarsiz jumlalar bor. Masalan, fikrini yozma bayon qilishda bir so'zni takror qo'llash yoki so'zdan noo'rin foydalanish, tasviriy vositalarni, qo'shma gaplarni qo'llay olmaslik kabi xatolar qilishadi. Grammatik topshiriqlar o'quvchilar uchun murakkab qoidalarni sifatida emas, balki yozma va og'zaki nutqni to'laqonli yaratishlariga ko'maklashuvchi vosita bo'lishi lozim.

O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini o'stirishga asoslangan topshiriqlar ularning yoshiga mutanosib tarzda tanlanishi lozim. Zero, boshlang'ich sinf o'quvchisi va professional yozuvchining fikrlashida farq bor. Agar ularning yozma nutqi qat'iy talablar asosida chegaralansa, ular doim eshitib yurgan tayyor birikmalar va jumlalardan foydalanishadi. Natijada ijodiy tafakkur qila olmaydi. "Bilimlar bu – ijtimoiy-tarixiy ong, insoniyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti hosilasidir. Bilimlar bu – insoni-

yat tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini faol o'zgartirish jarayonida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan, va obyektiv dunyonи chuqurroq anglashga hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlar haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va sistemalashgan majmuyidir [2: 14].

Ikkinci til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Ma'lumki, til kishilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, hurmat-e'zozlashlari, do'stlashishlarida tengi yo'q omil, bebaho vositadir. Chet til – xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Ular ta'lif muassasalarining o'quv rejalaridan o'r'in oлган. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi: birinchidan, ona tilida tafakkur shakllanadi, o'zga tillarni o'rganish ulardagi fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni his etish bilan bog'liqdir; ikkinchidan, o'rganish tartibi ona tildan boshlanib, undan keyin ikkinchi til va, nihoyat, chet tilga o'tiladi; uchinchidan, ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yana-da takomillashtirishga erishadi.

Mamlakatimizda ushbu madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini G.T.Mahkamova o'rgangan bo'lib, u talabalarning madaniy bilimdonligini, kasbiy salohiyatini oshirish uchun, ya'ni bo'lg'usi chet til mutaxassislarini kasbiy faoliyatga madaniyatlararo muloqot orqali tayyorlashni taklif qiladi [3: 43]. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi mamlakatshunoslik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-psixologik, kulturologik komponentlarni o'z ichiga olgani bois chet tillarni o'qitishda lingvomamlakatshunoslik va madaniyatshunoslik komponentlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Mashg'ulotlar jarayonlarida ham ushbu mal-



akalarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi mamlakatshunoslik xarakteridagi matnli, audio- va video-materiallar hamda taqdimotlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Metodika sohasida tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi ma'lumotlarni aynan tildan foydalangan holda o'rganish, uni o'zgalarga yetkazishni nazarda tutadi. Mashg'ulotlar jarayonida boshqa mamlakatlarning madaniyatini o'rganar ekanmiz, biz o'sha mamlakatning tilini bilmasdan turib uni o'rgana olmaymiz, tilni o'rganar ekanmiz, biz uchun yot bo'lgan faktlar va qiziqarli ma'lumotlar orqali o'rganish, ya'ni til va madaniyatni o'zaro bog'lab o'rganish ham samarali natija beradi.

Tilshunos olimlar Sitaram va Kogdellar "butun dunyo xalqlari madaniyatlararo muloqotni o'rganishlari kerak", deb e'lon qildilar. Ularning fikricha, buning yordamida boshqa madaniyat vakillari haqida ko'proq ma'lumot olish muhimligi ko'rindi [4: 268]. Chunki inson muloqot jarayonida bir-biri bilan faqatgina muloqot uchun emas, balki biror ma'lumot olish uchun ham aloqaga kirishadi. Turli madaniyat vakillari o'zaro muloqotga kirishganda ular o'zaro ko'proq ma'lumot olish, o'rganish va tahlil qilish hamda taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu sababli biz o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab ona tilimiz bilan birgalikda chet tilni ham puxta o'rganishlariga imkon yaratib, ularga yetarli bilimlarni o'zlariga qulay va tushunarli bo'lgan usullarda o'rgatishimiz maqsadga mivofiqdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. https://www.journals.uz/wpcontent/uploads/2020/07/conf_iyul_18/7.Filologiya_fanlarini_rivojlantiris_h_yulidagi_tadkikotlar_2_qism.pdf
2. Loginova V.I., Samorukova P.G. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Махкамова Г. Формирование межкультурной компетенции студентов филологического вуза (английский язык). Дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 2011.
4. Song Li. Teaching English as intercultural education challenges of intercultural communication // Intercultural Communication Research, 2009, Vol.1.
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi (Foreign language teaching methodology): Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. Рогова Г.В. Методика обучения иностранному языку в средней школе. – Москва: Просвещение, 1991.